

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**RAQAMLASHTIRILGAN TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNI  
TARBIYALASHDA XALQ PEDAGOGIKASINING METOD, USUL VA  
VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

**Ismoilova Gulbaxor Azamovna**

*Qo'qon davlat universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

[ismoilovag352@gmail.com](mailto:ismoilovag352@gmail.com)

**Rustamjonova Namuna Samandar qizi**

*Qo'qon davlat universiteti talabasi*

[rustamjonovanamuna@gmail.com](mailto:rustamjonovanamuna@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada xalq pedagogikasining tarbiyaviy jihati, xalq pedagogikasi orqali yoshlarni tarbiyalashda foydalaniladigan usul, vositalar haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi muhim o'zgarishlarga, amalga oshirilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq pedagogikasi, tarbiya, tarbiya vositasi, metod, usul, tajriba, o'git, nasihat, avlod.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ta'lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad — ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Qonunlar, Prezident Farmonlari va Qarorlari ushbu mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonunining 14-moddasida shunday deyilgan: "Ma'rifiy faoliyat shaxsning shaxsiy, intellektual va ma'naviy jihatdan kamol topishi, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish, intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon etish, individual salohiyatini, imkoniyatlarini, muloqot qilish qobiliyatlarini yaxshilash uchun zarur ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan, davlat ta'lim standartlari bilan qamrab olinmaydigan faoliyat turi hisoblanadi"[1]. Bundan tashqari Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Eng kata boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng kata meros – bu yaxshi tarbiya, eng kata qashshoqlik – bu bilinsizlikdir" — deya ta'kidlaydi [2, B.23]. Bunday iqtiboslarni keltirishdan asosiy maqsad mamlakatimizda olib boilayotgan siyosatda yoshlarimizni har tomonlama barkamol, bilimli, tarbiyali etib voyaga yetkazishga asosiy e'tibor qaratilayotganligini ta'kidlashdir.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025**

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Shunday ekan tarbiyani rivojlantirishda albatta xalq pedagogikasining o'rni beqiyosdir. Xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi xalq og'zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati juda ham katta. Milliy urf-odatlar, an'analar, udumlar, xalq o'yinlari va o'yinchoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, oila tarbiyasi, yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, islom dinining odoq-axloq, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, xalq qo'shiqchiligi, raqs san'ati va milliy teatrlarning axloqiy tarbiyadagi o'rni, o'zbek xalqining muomala madaniyati, axloqiy me'yorlari, tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzi masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o'zida mujassam etgan. Shunga ko'ra barkamol shaxs vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, e'tiqod va sadoqatlilik, oqibatlilik, odoblilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi shu bilan birga chuqur ilm egallashi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrlashi, diniy ta'limotlarni to'g'ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi lozimligi uqtilgan. Bu fazilatlarning aksi bo'lgan nodonlik, badxulqlilik, qo'rqoqlik, yolg'onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, hasadg'o'ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo'lishi talab etilgan. Ana shu ijobiy fazilatlarni yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo'yicha xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalari mavjud.

O'git-nasihatchilik, ibrat-o'rnak ko'rsatish, rag'batlantirish va qoralash kabi metodlarni xalqimiz asrlar davomida qo'llab kelgan bo'lib, uning quyidagi ijobiy shakllari: tushuntirish, o'rgatish, mashq qildirish, odatlantirish, kun tartibini rejalashtirish, yaxshi xislat va ishlarga undash.

Xalq pedagogikasida yana bir tarbiya usuli bu o'yindir. Bolalar o'yinlarining o'z qoidalari bo'lgan. Shu qoidaga rioya qilmagan bolalarni "o'yin buzuvchi" deb o'yindan chetlatishgan. Ya'ni o'yin jarayonida bolaning yaxshi va yomon jihatlari namoyon bo'lgan. E'tibor bersangiz, tarbiya vositalarining barchasi ko'pchilik ishtirokida amalga oshiriladi, yani turli bayramlarda, xalq sayillarida shunday vositalardan foydalanilgan va shubhasiz, bu juda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday bayram, sayilarda bolalarning yaxshi va yomon xatti-harakati ko'pchilikning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi va shu ko'pchilik tomonidan baholanadi. Ota-onalar o'z farzandlari tarbiyasiga oid xulosalar chiqaradilar. Farzandlarning odoq-axloqi haqidagi yaxshi fikrlar ota-onani

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**21.10.2025**

quvontirsa, aksincha, farzandining xulqi haqidagi ta'na va isnodlar ularni tashvishga soladi.

O'smir yoshdagi bolalarning choyxona gurungi, gap-gashtklarining ham o'ziga yarasha qoidasi bor. Bu choyxonaga navbat bilan taklif qilish, o'rtoqlari bilan samimiy muomalada bo'lish so'zlovchi gapini bo'lmaslik, navbat bilan gapirish, navbat bilan choy quyish, choyni o'ng qo'l bilan uzatish, noz-ne'matlarni teng baham ko'rish, dasturxonga undash va hokazolardir. O'smirlarning yaxshi fazilatlari ham, yomon xulqi ham bu yig'inlarda namoyon bo'ladi. Kattalarning o'git-nasihatlarini olib, ulfatchilikda qatnashgan o'smirlar odob qoidalarini yaxshi o'zlashtirib oladilar.

Xalq pedagogikasida tarbiya vositalaridan yana biri mehmondorchilikdir. Marosim, yig'in, to'y-tomosha, gap-gashtak, choyxona gurungining barchasi mehmondorchilikni o'z ichiga oladi. Mehmondorlik xalqimiz hayotiga singib ketgan eng yuksak kishilik fazilatlaridan iborat bo'lib, yoshlar tarbiyasida eng muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Mehmondorlikning o'ziga xos qoidalari bolalarga pand-nasihat, maslahatlar berish orqali, shaxsiy ibrat-o'rnak ko'rsatib yoshligidan o'rgatib kelinadi. Shu tariqa xalqimiz yuqoridagi kabi tarbiya metodlari, shakllari va vositalari orqali yosh avlodni axloqiy tarbiyalab, insoniy fazilatlarga o'rgatganlar.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasidagi metod, usul, vositalar yoshlarni barkamol va yetuk bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kattalarning hayot tajribasiga tayangan holda ish ko'rish yaxshi natijalarga yo'l ochadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan bunday tarbiya vositalari va metodlari tarbiya ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil, 23-sentyabr; yangi tahriri)
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Azamovna, Ismoilova Gulbaxor. "Development of ecological culture on the basis of modern pedagogical technologies." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036 11.04 (2022): 165-170.
4. Ismoilova, Gulbaxor Azamovna. "Technology for Organizing Trips to Historical Sites Outside the Audience." International Journal on Orange Technologies 3.4 (2021): 229-233.
5. Ismoilova, Gulbaxor, and Sabina Sayfullayeva. "PEDAGOGIK FANLAR TIZIMIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANING UZVIYLIGI." TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA: 73.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

6. Azamovna, Ismailova Gulbakhor. "Globalization in the process the student is the national values of the youth in the spirit bring up necessity." JournalNX 8.12 (2022): 512-516.

